

QAYDNOMA №2

2022 yil 7 sentyabr kuni soat 14:00 da o'tkaziladigan
ToshPTI Ilmiy Kengashining

QAROR LOYIHASI:

Kun tartibi:

1. 2021-2022 o'quv yili yakunlari va yangi 2022-2023 o'quv yilida professor-o'qituvchilar oldida turgan vazifalari haqida.

Ma'ruzachi: ToshPTI rektor, t.f.d., professor B.T. Daminov.

2. 1-kurs talabalarini kutib olish. "Birinchi kurs maktabi" mashg'ulotlarini dastur asosida o'tkazish. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligini munosib kutib olish. «Mustaqillik darslari»ni o'tkazish.

Ma'ruzachi: ToshPTI Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor M.A. Axmedova.

3. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma'ruzachi: Ilmiy Kengash kotibi.

4. Turli masalalar.

Ko'rib chiqildi:

Birinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI rektor, t.f.d., professor B.T. Daminov. 2021-2022 o'quv yili yakunlari va yangi 2022-2023 o'quv yilida professor-o'qituvchilar oldida turgan vazifalari haqida.

1 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI rektor, t.f.d., professor B.T. Daminov. 2021-2022 o'quv yili yakunlari va yangi 2022-2023 o'quv yilida professor-o'qituvchilar oldida turgan vazifalari haqida:

Yangi tahrirdagi fan dasturlari kadrlar buyurtmachisi talablaridan kelib chiqib takomillashtirib borish. Shuningdek bosqichma-bosqich o'quv rejasi, fanga ajratilgan soatlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin;

Ilmiy salohiyatini oshirish;

Ilmiy grant loyihalarini tayyorlash va tanlovda ishtirok etish;

Xalqaro ilmiy jurnallarda («Web of Science», «Scopus» va boshqa xalqaro e'tirof etilgan bazalarga kiritilgan jurnallarda) chop etiladigan ilmiy maqolalar sonini oshirish;

Scopus ma'lumotlar bazasida qayd etilgan nashrlarda iqtibosliklar sonini oshirish;

Innovatsion ishlanmalar bo'yicha xo'jalik shartnomalarini tuzish va ishlanma mualliflarini rag'batlantirish;

Ilmiy-innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish;
Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish;
Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda talabalar hamda xodimlarni keng qamrab olish chora-tadbirlarini ko'rish;

Mahallalar olib borilayotgan ishlar qamrovi va samaradorligini oshirish.

Ikkinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, bo'yicha prorektor M.A. Axmedova. 1-kurs talabalarini kutib olish. "Birinchi kurs maktabi" mashg'ulotlarini dastur asosida o'tkazish. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligini munosib kutib olish. «Mustaqillik darslari»ni o'tkazish.

2 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, bo'yicha prorektor M.A. Axmedova. 1-kurs talabalarini kutib olish. "Birinchi kurs maktabi" mashg'ulotlarini dastur asosida o'tkazish. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligini munosib kutib olish. «Mustaqillik darslari»ni o'tkazish:

"Birinchi kurs maktabi" dasturi asosida talab darajasida o'tkazilishi ta'minlansin;

"Mustaqillik darslari" dasturi asosida barcha guruh talabalariga kafedralar tomonidan berilgan materiallar asosida o'tkazilsin va bayonnomalari rasmiylashtirilsin.

Uchinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Ilmiy Kengash kotibi tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy tavsiyanomalarni o'qib eshittirdi. Ularning muhokamasi bo'lib o'tdi.

3 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI Ilmiy Kengash a'zolari tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya va uslubiy tavsiyanomalar ovozga qo'yildi va bir ovozdan keyingi bosqichga tavsiya etildi.

4. Turli masalalar:

Kengash raisi
t.f.d., professor:



B.T. Daminov

Kengash kotibi
t.f.d., dotsent:


J.B. Sattarov